

Date: 9th April-2026

MAQSUD SHAYXZODA VA SAKINA XONIM: QATAG‘ON DAVRIDA OILA,
SADOQAT VA MADANIY MEROSNI SAQLASH MEZONI

Amirxonov Ibrohim Abdurahmon o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti

“Temir yo‘l transport muhandisligi” fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Maqsud Shayxzoda va uning rafiqasi Sakina xonim hayoti misolida qatag‘on davri fojialari tahlil qilinadi. Maqolada oilaviy sadoqatning emas balki o‘z davri uchun misli ko‘rilmagan ishlar qilgan va o‘z eri uchun ham chinakam rafiq bo‘la olgan ayol Sakina xonim haqida.

Kalit so‘zlar: Maqsud Shayxzoda, Sakina xonim, qatag‘on siyosati, oilaviy sadoqat, madaniy meros, arxiv, bir ayol matonati.

Аннотация: В данной статье на примере жизни великого представителя узбекской литературы XX века Мақсуда Шайхзаде и его супруги Сакины ханум анализируются трагедии периода репрессий. Статья посвящена не только семейной верности, но и беспрецедентному мужеству Сакины ханум, которая совершила невероятные поступки для своего времени и стала настоящей опорой для своего мужа в самые тяжелые годы.

Ключевые слова: Мақсуд Шайхзаде, Сакина ханум, политика репрессий, семейная верность, культурное наследие, архив, стойкость женщины.

Abstract: This article analyzes the tragedies of the repression period through the lives of Maqsud Shaykhzoda, a prominent figure in 20th-century Uzbek literature, and his wife, Sakina Khanum. The focus is not merely on marital devotion, but on the unprecedented courage of Sakina Khanum, who performed extraordinary deeds for her time and proved to be a true pillar of support and a soulmate for her husband.

Keywords: Maqsud Shaykhzoda, Sakina Khanum, policy of repression, family loyalty, cultural heritage, archive, a woman’s fortitude.

XX asrning 30–40-yillari o‘zbek adabiyoti uchun yangi davrning boshlanishi bo‘lib, bu jarayonda shaxs erkinligi bilan davlat nazorati o‘rtasidagi keskinlik adabiy muhitning har bir a‘zosiga bevosita ta’sir ko‘rsatardi. Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjonning Oqtosh tumanida tug‘ilib, 1928-yillardan boshlab Toshkentda yashay boshladi. Shoirning adabiy doiralarga kirib kelishi, she’riy tajribalari va dramaturgik qidirishlari aynan shu davrda shakllandi. 1935-yillar o‘rtalarida u Sakina xonim bilan oila qurgan. Bu ittifoq shunchaki shaxsiy munosabatlar chegarasida qolmadi, balki Shayxzoda ijodiy barqarorligining asosiy omillaridan biriga aylandi. O‘sha yillarda adabiyot nafaqat san’at, balki g‘oyaviy tarbiya vositasi sifatida talab qilingan sharoitda, oilaviy muhit shoir uchun ichki erkinlik va fikriy xavfsizlik maktabi bo‘lib xizmat qildi. Sakin xonim nafaqat rafiq shuningdek “uy bekasi” ham edi, uning o‘sha davr uchun yaniy qiyinchilik damlarida o‘z halol jufti bilan bir davirda yashab unga suyanch bo‘lish va uni hamiga sherik bo‘lish osha davr uchun og‘ir damlar deyish mumkin. Men Toshkent davlat transport universiteti



Date: 9th April-2026



talabasi sifatida, bu jarayonni muhandislik tizimidagi “poydevor va yuk ko‘taruvchi konstruktsiya” tamoyiliga qiyoslayman. Har qanday ko‘prik, temir yo‘l yoki avtomobil trassasi loyihasida ko‘rinmas tayanch nuqtalar mavjud. Ular loyiha hujjatlarida kam tilga olinadi, lekin tizimning barqarorligi aynan shu nuqtalarga bog‘liq. Adabiyotda ham shunday: biz ko‘pincha muallif nomini, asar sarlavhasini, nashr yilini ko‘ramiz, lekin uning orqasida turgan tartiblovchi, saqlovchi, tahrirlovchi va kutuvchi shaxslarni hisobga olmaymiz. Sakina xonim – aynan shu “ko‘rinmas tayanch” edi.

1952-yil Maqsud Shayxzoda hayotidagi eng og‘ir burilish nuqtasi bo‘ldi. “Xalq dushmani” aybi bilan hibsga olingan shoir 1954-yilgacha tergov va qamoq sharoitida yashadi. Bu davr nafaqat jismoniy cheklovlar, balki ruhiy izolyatsiya va ijodiy uzilish xavfi bilan kechdi. Aynan shu sinovli kunlarda Sakina xonim oila boshqaruvi, bolalar tarbiyasi, iqtisodiy qiyinchiliklar va shoirning merosini saqlashdek to‘rt yo‘nalishda bir vaqtda harakat qildi. O‘zbekiston Milliy Arxivi hujjatlarida qayd etilishicha, u shoirning uyidan olib ketilgan qo‘lyozmalar ro‘yxatini tuzish, do‘stlar orqali adliya organlariga murojaat qilish, shoirning sog‘lig‘i haqida ma‘lumot olishga harakat qilish va eng muhimi – qolgan qo‘lyozmalarni yashirin joylarga joylashtirish bilan shug‘ullangan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, qatag‘on siyosati nafaqat ayblanuvchini, balki uning oilasini, ijtimoiy aloqalarini va madaniy izlarini yo‘qotishga qaratilgan tizim edi. Shunday sharoitda qo‘lyozmalarni saqlab qolish – bu oddiy ehtiyotkorlik emas, balki kelajak avlodlar uchun adabiy xotirani qutqarish operatsiyasi edi. Sakina xonimning matonati aynan shu nuqtada namoyon bo‘ldi: u nafaqat kutdi, balki harakat qildi; nafaqat yig‘ladi, balki yozdi; nafaqat yashiradi, balki tartibga soldi. Uning bu faoliyati o‘sha davr ayollari uchun misli ko‘rilmagan, chunki rasmiy ma‘lumotlar va jamoatchilik fikri ayollarni fikrini yaxshi bayon eta olamaydigan sifatida ko‘rishga moyil edi. Holbuki, Sakina xonim faol ayollardan biri sifatida madaniy merosni saqlash, xatarni boshqarish va kelajak uchun “ma‘lumot bazasini” himoya qilishdek murakkab vazifalarni bajargan.

Men bu bo‘limni yozayotganda, transport tizimidagi “signalizatsiya va zaxira yo‘nalishlar” tushunchasini esladim. Muhandislikda tizim ishonchliligi nafaqat asosiy yo‘l, balki zaxira marshrutlar, favqulodda to‘xtatish mexanizmlari va ma‘lumot uzatish kanallariga bog‘liq. Sakina xonim – aynan shu “zaxira tizim” edi. U shoirning asosiy ijodiy jarayoni to‘xtatilganda, merosning yo‘qolmasligi uchun yashirin marshrutlar yaratdi. Adabiy tadbirlarda ko‘p marta “qatag‘on qurbonlari” haqida gapiriladi, lekin ularning oilalari, ayniqsa ayollarning roli ko‘pincha ma‘lumot yoki qisqa eslatma sifatida qoladi. Bu metodologik kamchilik. Sakina xonim haqida gapirish – bu nafaqat tarixiy adolat, balki “bir ayol matonati”ning madaniy merosga qanday bevosita ta‘sir ko‘rsatishini ko‘rsatuvchi ilmiy yo‘nalish. Darsda bu tushunchani kiritish talabalarda nafaqat adabiy, balki tarixiy va axloqiy mas‘uliyat hissini uyg‘otadi.

1954-yilda Shayxzoda oqlanib, yana adabiyotga qaytdi va biz kutkandak o‘z davrining nomdor asarlarini yozdi. Bu davr uning ijodida yangi bosqichni boshlab berdi. Aynan shu yillarda “Toshkentnoma” dostonining g‘oyaviy va she‘riy asoslari shakllana boshladi, 1944-yilda “Jaloliddin Manguberdi” asari keyinchalik esa 1964-yilda “Mirzo Ulug‘bek” padarkush tragediyasini yozdi.

Date: 9th April-2026



Shoirning yana o‘zbek halqi uchun qoldirgan yana bir buyuk asari “Toshkentnoma” nafaqat shahar tarixi, balki insoniy taqdir, xotira va madaniy uzluksizlik dostonidir. Asardagi shahar tasviri me‘moriy obidalardan tashqari, insoniy munosabatlar, kutish jarayoni, vaqt oqimida saqlanib qolgan izlar bilan to‘ldirilgan. Bu jarayonda Sakina xonimning roli “yashirin redaktor” yoki “xotira qo‘riqchisi” sifatida namoyon bo‘ladi. Uning saqlagan qo‘lyozmalari, tartibga solgan yozuvlari va shoirga ko‘rsatgan ma‘naviy qo‘llab-quvvatlovi “Toshkentnoma”ning tug‘ilishiga bevosita zamin yaratdi. Sadoqat bu yerda faqat oilaviy his-tuyg‘u emas, balki madaniy merosni saqlashning amaliy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘sha davr sharoitida qo‘lyozmalarni saqlab qolish, ularni tartibga solish va keyingi nashrlarga tayyorlash – bu ayol uchun misli ko‘rilmagan mehnat edi, chunki rasmiy adabiyotshunoslikda bunday harakatlar “ilmiy tashkilotchilik” deb emas, “oilaviy sadoqat” doirasida qolgan.

Men, Toshkent davlat transport universiteti talabasi sifatida shuni angladimki, har bir buyuk inson ortida undan-da buyukroq va matonatliroq ayol turadi. Bu gapni faqat romantik ma‘noda emas, balki tizimli va ilmiy jihatdan ham tasdiqlash mumkin. Transport sohasida yo‘l qurish, ko‘prik loyihalash yoki temir yo‘l tarmoqlarini boshqarishda ko‘rinmas poydevorlar, tayanch nuqtalar va signalizatsiya tizimlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xuddi shunday, adabiyot tarixida ham “ko‘rinmas tayanchlar” mavjud. Sakina xonim – shoirning ijodiy jarayonidagi shunday tayanch nuqtasi edi. U nafaqat kutdi, balki saqladi, tartibga soldi, xavf-xatardan himoya qildi va kelajak uchun yo‘l ochdi. Adabiy tadbirlarda ko‘p marotaba mualliflar haqida gapirishimizga qaramay, ularning orqasida turgan insonlar haqida kam o‘ylaymiz. Lekin haqiqat shundaki, buyuk asarlar nafaqat qalam, balki sadoqat, matonat va tinimsiz mehnat mahsulidir. Ochig‘i, aytish kerakki, biz talabalar ko‘pincha natijani (kitobni, dostonni, spektaklni) ko‘ramiz, lekin uni yaratishga sarflangan “ko‘rinmas resurslar”ni hisobga olmaymiz. Sakina xonim misoli shuni ko‘rsatadiki, har qanday ijodiy yoki ilmiy yutuq ortida insoniy sadoqat va ma‘naviy mustahkamlik turadi. Bu tushuncha nafaqat adabiyot, balki har qanday soha – texnika, muhandislik, tibbiyot yoki ta‘limda ham o‘z tasdig‘ini topadi. Men adabiy kechalarda shu g‘oyani talabalar bilan muhokama qilganimda, ularning ko‘zlarida tarixga bo‘lgan yangicha qiziqishni sezaman. Chunki haqiqiy ilm nafaqat matnni o‘qish, balki uning orqasidagi insonni ko‘ra olishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek adabiyoti tarixi. 4-jild. – Toshkent: Fan, 1979.
2. Shayxzoda M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi. Fond 12, ro‘yxat 1, ish 345. 1952–1955-yillar hujjatlari.
4. Karimov T. Maqsud Shayxzoda: Hayoti va ijodiy yo‘li. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
5. Raxmatullayev Sh. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
6. Adabiyotshunoslik jurnali. 2018, №3. “Qatag‘on davri adabiyoti va oilaviy kontekst”.
7. Yo‘ldoshev A. XX asr o‘zbek adabiyoti: shaxs va davr. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2010.